

INKLYUZIV SINFDAGI ONA TILI FANI O'QITUVCHINING ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchi

Usanova Umida Bolbek qizi

JDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fani o'qituvchisining inklyuziv ta'lism sinfga qabul qilingan alohida ta'lism ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan birqalikda amalga oshiradigan ish faoliyati haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Ona tili fani o'qituvchisi inklyuziv ta'lism, gospital pedagogika va tibbiy bilimga ega bo'lishi, alohida ta'lism ehtiyoji bo'lgan bolalarni individual xususiyatlari, nuqson xarakteristikasi va psixologik holatini bilgan holda ta'limga yondashishi talab qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lism sinfi, ona tili fani o'qituvchisi, alohida ta'lism ehtiyojiga ega bo'lgan bola, metodika.

Annotation: This article provides detailed information about the work of a native language teacher with children with special educational needs admitted to an inclusive education class. A native language teacher is required to have inclusive education, hospital pedagogy and medical knowledge, and to approach education with knowledge of the individual characteristics, characteristics of the defect, and psychological state of children with special educational needs.

Keywords: inclusive education class, native language teacher, child with special educational needs, methodology.

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan alohida ta'lism ehtiyojli bolalarni o'qitish-tarbiyalash, kasb-hunar o'rgatish hamda ijtimoiy maishiy-hayotga yo'naltirishda moslashuvchan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon hamda qarorlarda so'zimiz tasdiqidir. Inklyuziv ta'lism bugungi davr siyosatidir. Alohida ta'lism ehtiyojli bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birqalikda umumta'lism mакtablarida bilim olishi, do'stona muhit, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lism-tarbiya olishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12- oktabrdagi 638-sonli qarorining 1-ilovasi "Umumiy o'rta ta'lism tashkilotlarida inklyuziv ta'lismni tashkil etish tartibi to'g'risida" gi hujjatlarga muvofiq umumta'lism muassasalarida tashkil etiladigan inklyuziv ta'lism sinflarida bir qator pedagoglar o'z faoliyatini olib boradi. Hozirgi kunda inovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan zamonaviy inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'qituvchi xuddi ommaviy ta'lism muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatori, tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi va o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarga, va ijtimoiy hayotda har qanday sohada faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi deb hisoblanadi. O'qituvchining

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

tashqi qiyofasi, ya’ni kiyinish uslubi ko‘pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi, ya’ni toza, ozoda, qulay, ko‘zga tashlanmaydigan zamonaviy o‘qituvchi qiyofasi, madaniyatini o‘zida aks ettirgan bo‘lishi o‘quvchilar uchun ibrat bo‘lib qoladi. O‘qituvchining butun qiyofasi bolalarni o‘quv jarayonidan chalg‘itmasligi–pedagog oldiga qo‘yilgan asosiy talablar sirasiga kiradi. O‘qituvchining nutqi hamma vaqt o‘zbek adabiy tilini o‘zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to‘g‘ri va o‘rinli ravishda qo‘llashi, bu hozirgi kun va zamon talabi darajasida bo‘lishi lozim. Jumaladan ona tili fani o‘qituvchisiga ham quyida muhim talablar qo‘yiladi. Birinchidan, barcha o‘quvchilarga DTS asosida umumta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam bera olishi, past o‘zlashtiruvchi yoki o‘zlashtirishiga to‘sinqinlik qiluvchi omilga ega o‘quvchilar bilan individual holda ish olib borishi, ikkinchidan o‘quvchilarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni guruhli tarzda tuzatish (korreksiya) qilishi va barcha darslarda adabiy til me’yorlari asosida nutqiy muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirishi, sinf va sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirishda bevosita ishtirot etishi.

Ona tili fani o‘qituvchining asosiy vazifasi dars mazmunini tashkil qilishda va o‘quvchilarga topshiriqlarni berishda:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar) o‘quvchiga alohida,
- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar) o‘quvchiga alohida,
- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan o‘quvchiga alohida,
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan o‘quvchilar uchun tushunarli va yetarida etkazib berish talab qilinadi.

Somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar), nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish), tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi - pakanalik), aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar bundan mustasno. Chunki ularning aqliy salohiyatida hech qanday muammosi bo‘lmaganligi uchun sinfdagi sog‘lom bolalarga berilgan topshiriqlar farqlanmagan holda bolalarga taqdim etilishi kerak. Ona tili fani o‘qituvchisi har bir mavzuni tushuntirishda alohida ehtiyojli o‘quvchi barcha sinfdoshlari bilan teng ravishda ishtirot eta olishini nazoratga olishi kerak. Agar o‘quvchi darsda o‘tilgan mavzuni tushunmasa o‘qituvchi bolaga mas’ul tyutor yoki ota-onasiga mavzuga oid ko‘rsatmalar, topshiriqlar berishi lozim. Har bir fanda mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda noma‘lum tushuncha va tasavvur paydo bo‘lishi tabiiy holat. Shundan kelib chiqqan holda fan o‘qituvchisi har darsda alohida ehtiyojli bolani har bir fan bo‘yicha o‘tiladigan mavzuga mos bo‘lgan dastlabki tushunchalar vizual va maxsus metodikalar asosida bolaga oson va tushunarli tarzda berib borilishi ko‘zda tutiladi. Bundan tashqari fan o‘qituvchilar sinf o‘qituvchisi va maxsus o‘qituvchi, maktab psixolog, logoped va oila bilan hamkorlikda ish olib borishi juda muhimdir. Agar o‘tiladigan dars mashg‘uloti mavzusi o‘qish, hikoya, roman yoki doston bo‘lsa, u obrazga kirib, yorqin, ya’ni rolga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqtira olishi talab etiladi. Agar mashg‘ulot mavzusi og‘zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo‘lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo‘lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o‘qituvchi o‘z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e’tibor bergen holda sustkashlikka yo‘l qo‘ymasdan, kerakli o‘rinda obrazli qilib,

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri, til ko'nikmalariga kuchli e'tibor qaratilishi lozim. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli o'quvchilarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi, birinchi o'rinda turishi lozim. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi. O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lsin. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin. Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyati, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatları hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni o'quv jarayonida bolalar nima uchun va nima o'rganayotganliklarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak va xohishlarini aniqlay olishi lozim. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan inklyuziv ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'limga o'tkazilishi va taqsimlanishi uchta asosiy tizimidan iborat bo'lishi kerak:

-ta'lim mazmuni – bu tizimda zarur kasbiy bilimlar aks etadi. O'qituvchi o'zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo'lishi talab qilinadi;

- bo'lajak inklyuziv sinf o'qituvchisining kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllantirish tushiniladi;

-hozirgi zamon talabidan kelib chiqib dars jarayonlarini kasbga yo'naltiruvchi ruhda hayot va amaliyotga bog'lagan tarzda tizimli qilib olib borish nazarda tutiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djurayeva, S., & Kubayeva, S. (2024). INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KADRЛАRGA QO'YILADIGAN TALABLAR MAZMUNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 108–111. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48935>
2. Djurayeva, S., Abdullayeva, Y. ., Abdigapporova, M. ., & Abdug'apporova, M. (2024). IMO-ISHORA TILI TIZIMIDA YANGI IMO-ISHORALARNING ROLI. *Modern Science and Research*, 3(12), 286–288. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/54215>
3. Djurayeva, S. ., & Xudoynazarova, S. . (2024). INKLYUZIV TA'LIMDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'QITISH. *Наука и инновации в системе образования*, 3(13), 99–102. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/sies/article/view/51165>
4. Djurayeva , S., & Mamirova , G. (2024). INKLYUZIV TA'LIMDA IJTIMOIY HIMYOYAGA MUHTOJ BOLALARNI O'QUV-TARBIYA JARAYONIGA MOSLASHTIRISH METODLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(11), 107–110. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/sspme/article/view/53331>

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

5. Djurayeva , S. ., & Oltibekova , M. . (2024). INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARINING OTA-ONALARI BILAN ISHLASH. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 3(21), 21–25. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/51550>
6. Djurayeva, S., & Anvarjonova , M. . (2024). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILISH. *Развитие и инновации в науке*, 3(11), 52–54. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/dis/article/view/53007>
7. Djurayeva , S. ., & Mustaqova, M. (2024). INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI. *Инновационные исследования в науке*, 3(11), 27–30. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/irs/article/view/52691>
8. Djurayeva, S., & Sherqo'ziyeva, R. (2024). INKLYUZIV TA'LIMGA BOLALARNI JALB ETISH: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO'LLARI. *Международная конференция академических наук*, 3(11), 36–39. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/icas/article/view/50929>
9. Djurayeva Sohiba Barat qizi Tursunova Maxliyo Saydaxmat qizi ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH <https://doi.org/10.5281/zenodo.15055153> <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/47273>
10. Djurayeva Sohiba Barat qizi Mavlonova Durdona Shuxrat qizi INKLYUZIV TA'LIMNING TIBBIY-PEDAGOGIK-IJTIMOIY MODELI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15043205> <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/25524>